

UDK: 796

**SPORT MALAKALARIGA O'RGATISHDA QADDI-QOMATNI  
SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK PRINSIPLARNI DIDAKTIK  
TARTIBDA QO'LLASH MUHIMLIGI**

**F.A. Pulatov**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasи p.f.b.f.d. (PhD)

E-mail: [farhodpulatov0750@mail.ru](mailto:farhodpulatov0750@mail.ru)

**M.A. Umbetova**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasи katta o'qituvchisi

E-mail: [m39186715@gmail.com](mailto:m39186715@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Sport malakalariga o'rgatish jarayonida ma'lum bir didaktik hamda pedagogik prinsiplarga rioya qilish zarurdir. Didaktika so'zining tushunchasi bilim berish nazariyasining muayyan tartibini anglatadi. Prinsip tushunchasi bilim berishda muayyan tamoyilga, tartib yoki qonuniyatga asoslanish bilan bog'liqdir. Biror kishi o'z bilimini o'zgaga singdirishda, o'z fikrini isbotlashda o'ziga xos didaktik prinsiplarga asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** didaktik prinsipi, koordinatsiya, pedagogik, qaddi-qomatni shakllantirish.

**ВАЖНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ  
ПРИНЦИПОВ В ДИДАКТИЧЕСКОМ ПОРЯДКЕ ПРИ  
ФОРМИРОВАНИИ УРОВНЯ ОБУЧЕНИЯ СПОРТИВНЫМ НАВЫКАМ**

Кафедра теории и методики волейбола, баскетбола Узбекистан, г. Чирчик,  
улица спортивная 19 Узбекский Государственный Университет физической  
культуры и спорта

**АННОТАЦИЯ**

В процессе обучения спортивным навыкам необходимо придерживаться определенных дидактических, а также педагогических принципов. Понятие слова дидактика относится к определенному порядку теории познания. Понятие принципа связано с опорой на определенный принцип, порядок или закон в передаче знаний. Человек опирается на конкретные дидактические принципы в усвоении своих знаний, в доказательстве своей точки зрения.

**Ключевые слова:** дидактические принципы, координационное, педагогическое, воспитательное.

## THE IMPORTANCE OF APPLYING DIDACTIC PRINCIPLES IN A DIDACTIC MANNER WHEN FORMING THE LEVEL OF TRAINING IN SPORTS SKILLS

Department of Theory and Methods of Volleyball, Basketball Uzbekistan,  
Chirchik city, sports street 19 Uzbek State University of Physical  
Culture and Sports

### ABSTRACT

In the process of learning sports skills, it is necessary to adhere to certain didactic as well as pedagogical principles. The concept of the word didactics refers to a certain order of the theory of knowledge. The concept of principle is related to the reliance on a certain principle, order or law in the transfer of knowledge. A person relies on specific didactic principles in mastering his knowledge, in proving his point of view.

**Keywords:** didactic principles, coordination, pedagogical, educational.

### Ishning dolzarbliji va zaruriyati

O‘qitish hamda o‘rgatish jarayonida ma’lum didaktik va pedagogik prinsiplarga rioya qilish kasbiy bilim ko‘nikma va malakalarni samarali o‘zlashtirish shartlari ekanligi uqtirib o‘tilgan. Didaktika atamasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib pedagogika fanining asosiy qismi sifatida bilim berish nazariyasining muayyan tartibini anglatadi. Prinsip tushunchasi esa lotincha prinsipus-so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bilim berishda muayyan tamoyilga, tartib yoki qonuniyatga asoslanish bilan bog‘liq ekanligini ifodalaydi. Biror kishi o‘z bilimini o‘zgaga singdirishda, o‘z fikrini isbotlashda o‘ziga xos didaktik prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar qanchalik sinalgan bo‘lsa mantiqiy mohiyati qanchalik boy bo‘lsa shunchalik bilimni yoki fikrni o‘zgaga ko‘chishi samarali bo‘ladi. Binobarin sport pedagogikasida ham harakat ko‘nikmalari va malakalriga o‘qitish o‘rgatish nazariyasi hamda amaliyoti muayyan didaktik pedagogic prinsiplarga asoslanadi. Jumladan, o‘rgatish o‘qitish jarayonida 3 ta eng muhim didaktik prinsiplarga rioya qilish tavsiya etiladi. Bular o‘rgatuvchi “mashqlarni qo‘llashda “o‘tilganidan o‘tilmaganiga” (qo‘llanganidan qo‘llanmaganiga), yengilidan og‘iriga (yuklamalar hajmi va shiddati jihatidan) oddiyidan murakkabiga biomehanik koordinatsion tuzilishi jihatidan kani didaktik prinsiplardir.

## Sport amaliyotida qayd etilgan prinsiplarga asoslangan quyidagi ilmiy-pedagogik prinsiplardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

1. Ko‘rgazmalilik prinsipi
2. Onglilik va faollik prinsipi
3. Tarbiyaviy o‘rgatish prinsipi
4. Ilmiylik prinsipi
5. Muntazamlik va izchillik prinsipi
6. Mutanosiblik va individuallik prinsipi
7. Istiqbollik prinsipi
8. Mukammallik (mustahkamlash) prinsipi

**Ilmiylik prinsipi.** Ushbu prinsip xususan o‘qituvchi-trenerning kasbiy-pedagogik mahoratiga bog‘liqdir.

**Tarbiyaviy o‘rgatish prinsipi.** Bu prinsip avvalambor keng ma’noda har tomonlama shakllangan shaxsni tarbiyalash shu orqali tanlangan sport turida manmanlikka berilmaydigan, insonparvar, vatanparvar e’tiqodli umumbashariy va milliy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, ma’nan yetuk shaxsni tarbiyalshga qaratilgan.

**Onglilik va faollik prinsipi.** Avvalambor sport mashg‘ulotlarining maqsadi, vazifalari, vositalari uslublari mazmuni mohiyati va prinsiplarini bolalar ongiga yetkazishni o‘z ichiga oladi. Buning uchun trener shug‘ullanuvchi bolalarning faolligini ta’minlashi darkor.

**Ko‘rgazmali prinsipi.** sport malakalarini o‘rgatishda yo‘l qo‘yilgan hatolarni bartaraf etishga hizmat qiladi. Bu prinsip bosh miya yarim sharlarining “tasavvur-xissiyot xotira” markazida o‘rgatilayotgan harakat texnikasining aks-obraz loyihasini vujudga keltiradi.

**Muntazamlik va izchillik prinsipi.** Bu ikki bir biriga uzviy bog‘liq prinsip mashg‘ulotlar uzlusizligi muntazamligi va izchilligini ta’minlashga qaratilgan. Aynan ushu prinsip yuklamalarni to‘lqinsimon tartibda oshirish imkoniyatini yaratadi va yuksak sport natijasiga olib chiqadi.

**Mutanosiblik va individuallik prinsipi.** Didaktik prinsiplar ichida bu prinsip eng muhim va asosiy prinsip deb tan olingan. Ma’lumki har qanday mashg‘ulot jismoniy yuklama sifatida shug‘ullanuvchi organizmga ta’sir ko‘rsatadi.

**Istiqbolilik prinsipi.** Mazkur prinsip o‘z nomi bilan o‘rgatish va takomillashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan mashqlar salohiyati istiqbolni ta’minlashga xizmat qilish darkor.

**Mukammallik prinsipi.** O‘rgatish va takomillashtirish jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan ushu prinsip o‘zlashtirilgan texnik taktik malakalarni

mustahkamlashga har qanday tashqi va ichki tasirlarga nisbatan mukammalligini ta'minlashga mo'ljallangan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan pedagogic prinsiplarni qo'llash samaradorligi ustivor jihatdan trener sportchi uzviy zanjir tizimi maqsadli yo'lga qo'yilganligi bilan belgilanadi. Binobarin o'rgatish – o'zlashtirish umumдорлиги hamda qaddi qomat jismoniy funksional imkoniyat hamda mahoratni maqsadli shakllanishi didaktik mantiqqa asoslangan ilmiy pedagogic prinsiplardan foydalanish koyfisentiga bog'liq deb ta'kidlash mumkin.

Ushbu mavzu bo'yicha anjumanda havola etiladigan ilmiy ma'ruzada yuqorida qayd etilgan prinsiplardan foydalanish blok-andozalari va ularning nazariy-amaliy mohiyati ochib beriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Karimov B.Z. Basketbolni o'qitish metodikasi. // O'quv qo'llanma. 2020. – 180 b.
2. Miradilov B.M, Ganiyeva F.V., Xusanova D.T., Karimov B.Z., Pulatov F.A. //Sport va harakatli o'yinlar (basketbol). // O'quv qo'llanma. 2019. – 180 b.
3. Pulatov A.A., Ganiyeva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Darslik. T.: 2017. - 351 b.
4. Umbetova M. A., Kubeyanova U. T. Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o'yin mashqlari yordamida rivojlantirish //International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 111-116.
5. Умбетова М. А. БАСКЕТБОЛ ТҮГАРАКЛАРИДА МАШИФУЛОТ ВА МУСОБАҚА ЎЙИНЛАРИ ОЛДИДАН ЎТКАЗИЛАДИГАН АНЪНАВИЙ МАЗМУНЛИ ЧИГИЛЁЗДИ МАШҚЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШ //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 38-39.
6. M.A. Umbetova. BOKSCHILAR O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- METODIK ASOSLARIGA BAG'ISHLANGAN I XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN TO'PLAMI// ANJUMAN TO'PLAM. - 2022. - B. 319-324.
7. M.A. Umbetova. SPORT TURLARINI O'RGATISH METODIKASI METODIKASI (BASKETBOL) // 2023. - B. 231